



NAMANGAN VILOYATIDA DEMOGRAFIK QARISH JARAYONINING GEODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA HUDUDIIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Xasanova Shoira Dilmurod qizi

Namangan davlat universiteti Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

E-mail: shoiraxasanova2003@gmail.com |+998978274606

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida demografik qarish jarayonining geodemografik xususiyatlari, uning hududlar kesimidagi tafovutlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyat aholisi yosh tarkibining o'zgarishi, 60 va undan katta hamda 65 va undan katta yoshdagi aholining ulushi, demografik yuklama koeffitsiyenti va qarish indeksining hududiy farqlari statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, demografik qarishning mehnat bozori, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar va hududiy rejalashtirish jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, Namangan viloyatida faol qarish konsepsiyasini rivojlantirish, sog'lom qarilik infratuzilmasini kengaytirish, keksalar bandligini qo'llab-quvvatlash va hududiy demografik monitoring tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: demografik qarish, geodemografik tuzilma, yosh tarkibi, demografik yuklama, qarish indeksi, Namangan viloyati, hududiy rivojlanish.

Kirish

XXI asrning eng muhim demografik tendensiyalaridan biri aholi qarishining jadallashuvidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining demografik prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining qariyb har oltinchi fuqarosi 65 yosh va undan katta yosh guruhiga mansub bo'ladi. Bu jarayon nafaqat rivojlangan davlatlar,



balki demografik o'tish bosqichini boshdan kechirayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi umr davomiyligining ortishi, tug'ilish darajasining bosqichma-bosqich pasayishi va migratsiya oqimlarining hududiy taqsimoti demografik qarish jarayonining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar uzoq vaqt davomida yuqori tabiiy o'sish va yosh aholi ulushining ustunligi bilan tavsiflangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda yosh tarkibida muayyan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Mehnat yoshidagi aholining nisbiy ulushi, keksalar sonining sekin astalik bilan ko'payishi va demografik yuklamaning o'zgarishi hududiy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, Namangan viloyati yuqori aholi zichligi, tabiiy o'sishning nisbatan yuqori darajasi va urbanizatsiya jarayonlarining faolligi bilan ajralib turishi sababli geodemografik tadqiqotlar uchun muhim hudud hisoblanadi.

Namangan viloyatida qariyalar soni va demografik qarish jarayoni respublikaning boshqa ayrim hududlariga nisbatan sekinroq kechayotgan bo'lsa-da, tumanlar kesimida keksalar ulushi, umr davomiyligi, migratsiya va oilaviy tarkib ko'rsatkichlarida sezilarli tafovutlar mavjud.

Ushbu tafovutlar mehnat resurslarining hududiy taqsimoti, sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy himoya xarajatlari hamda infratuzilma rejalashtirish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun demografik qarish jarayonini geodemografik nuqtai nazardan o'rganish hududiy siyosatni ilmiy asosda takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatida demografik qarish jarayonining geodemografik xususiyatlarini aniqlash, uning hududiy tafovutlarini baholash hamda hududiy rivojlanishga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida viloyat aholisining yosh tarkibi, 60 va undan katta hamda 65 va



undan katta yoshdagi aholi ulushi, demografik yuklama koeffitsiyenti va qarish indeksining dinamikasi hamda hududiy farqlari o'rganildi.

Tadqiqotda geodemografik va statistik tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Natija va muhokama

Namangan viloyati O'zbekistonning demografik jihatdan eng zich joylashgan hududlaridan biri hisoblanadi. 2026-yil boshiga kelib viloyatning doimiy aholisi 3,19 million kishidan oshgan bo'lib, respublika umumiy aholisi tarkibida salmoqli ulushni egallaydi. So'nggi yillarda tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, aholi yosh tarkibida bosqichma-bosqich o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 60 va undan katta hamda 65 va undan katta yoshdagi aholining ulushi asta-sekin ortib borayotganligi demografik qarish jarayonining boshlang'ich bosqichi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Demografik qarish darajasini baholashda xalqaro amaliyotda 65 va undan katta yoshdagi aholi ulushi asosiy mezonlardan biri sifatida qo'llaniladi. BMT metodologiyasiga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 7 foizdan yuqori bo'lsa, hudud demografik qarish bosqichiga kirayotgan hisoblanadi [7]. Namangan viloyatida bu ko'rsatkich hali nisbatan past bo'lsa-da, uning yildan-yilga ortib borishi uzoq muddatli demografik rejalashtirish zaruratini kuchaytiradi. Jahon demografik amaliyotida aholi qarish darajasi ko'pincha 65 yosh va undan katta aholi ulushi asosida baholanadi. Mazkur mezonga ko'ra, 65 yosh va undan katta aholi ulushi 4 foizdan kam bo'lgan hududlar **demografik yosh**, 4–7 foiz oralig'idagi hududlar **qarish bo'sag'asida**, 7 foizdan yuqori bo'lgan hududlar esa **demografik qari** hududlar sifatida tasniflanadi [11].

Viloyat aholisi tarkibida bolalar va o'smirlar ulushi yuqoriligicha qolayotgan bo'lsa-da, mehnat yoshidagi aholining ulushi barqarorlashib bormoqda. Keksalar sonining ortishi, ayniqsa, qishloq hududlarida yoshlarning migratsiyasi bilan bog'liq



holda ayrim tumanlarda ancha yaqqol namoyon bo'lmogda (1-jadval). Bu holat hududlar kesimida demografik qarish sur'atlarining bir xil emasligini ko'rsatadi.

1-jadval.

Namangan viloyati hududlari bo'yicha 65 yosh va undan katta aholi soni, ulushi va qarish indeksi (2026-yil, 1-aprel holati)

Hudud	65+ yoshdagi aholi soni (kishi)	65+ yoshdagi aholi ulushi (%)	Qarish indeksi
Namangan shahri	42 180	5,8	21,6
Chortoq tumani	11 240	5,4	19,8
Chust tumani	17 980	6,2	24,4
Kosonsoy tumani	16 690	6,0	23,3
Mingbuloq tumani	8 580	5,0	17,4
Namangan tumani	9 950	5,3	18,9
Norin tumani	9 380	5,1	18,0
Pop tumani	13 540	5,6	20,5
To'raqo'rg'on tumani	12 090	5,4	19,4
Uchqo'rg'on tumani	10 140	5,2	18,6
Uychi tumani	12 300	5,2	18,5
Yangiqo'rg'on tumani	12 840	5,5	20,1
Namangan viloyati	177 910	5,6	20,3

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [13].

BMT mezonini asosida Namangan viloyati hududlari tahlil qilinganda, viloyatda demografik qarish jarayoni hududlar kesimida bir xil kechmayotganligi aniqlanadi. 65 yosh va undan katta aholi ulushi eng yuqori ko'rsatkich bilan Chust



(6,2 %) va Kosonsoy (6,0 %) tumanlarida qayd etilgan. Biroq mazkur ko'rsatkichlar 7 foizlik chegaradan past bo'lgani sababli ushbu tumanlar ham qarish bo'sag'asida (II bosqich) bo'lgan hududlar guruhiga kiradi. Shu bilan birga, qarish indeksining mos ravishda 24,4 va 23,3 ga tengligi qariyalar ulushining bolalar soniga nisbatan nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi hamda demografik o'tish jarayonining keyingi bosqichlariga xos belgilar shakllanayotganidan dalolat beradi.

Aksincha, Mingbuloq (5,0 %), Norin (5,1 %) va Uchqo'rg'on (5,2 %) tumanlarida 65 yosh va undan katta aholi ulushi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past bo'lsa-da, ular ham 4–7 foiz oralig'ida joylashgani sababli qarish bo'sag'asida bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Ushbu hududlarda tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi, yosh oilalar ulushining ko'pligi va yosh aholi salmog'ining yuqoriligi demografik tarkibning nisbatan yoshligini saqlab turuvchi omillar hisoblanadi. Namangan shahrida 65 yosh va undan katta aholi ulushi 5,8 % ni tashkil etib, u ham qarish bo'sag'asida bo'lgan hududlar guruhiga mansubdir. Shaharda qariyalar sonining mutlaq miqdori eng yuqori bo'lsa-da (42 ming kishidan ortiq), mehnat yoshidagi aholining salmog'i yuqori bo'lgani sababli demografik qarish jarayoni nisbatan muvozanatlashgan shaklda namoyon bo'lmoqda.

Viloyat bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 65 yosh va undan katta aholining ulushi 5,6 % ni, qarish indeksi esa 20,3 ni tashkil etadi. Demak, Namangan viloyati ham qarish bo'sag'asida (**II bosqich**) bo'lgan hudud hisoblanadi. Shunga qaramay, Chust va Kosonsoy tumanlarida qarish darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, aynan shu tumanlarda sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va geriatriya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi ehtimoli yuqori.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar demografik siyosatni yagona yondashuv asosida emas, balki hududlarning qarish bosqichi va yosh tarkibi xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial tarzda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Keksalar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan hududlarda faol qarish dasturlarini



rivojlantirish, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish hamda mehnat bozorida katta yoshdagi aholining ishtirokini qo'llab-quvvatlash muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi [5]. Yosh aholi ulushi yuqori hududlarda esa ta'lim, bandlik va uy-joy infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi

2-jadval

Hudud	2015			2020			2024		
	Bola lar	Qariy alar	Umu miy	Bola lar	Qariy alar	Umu miy	Bola lar	Qariy alar	Umu miy
Namangan viloyati	44,9	5,4	50,3	45,7	6,2	51,9	52,9	8,2	61,1
Namangan sh.	27	5,9	32,9	26,7	6,8	33,5	27	7,7	34,7
tumanlar :	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Mingbuloq	29,5	5,3	34,8	29,9	6,1	36	32,8	6,7	39,5
Kosonsoy	47	6,5	53,5	46,4	6,9	53,3	48,7	10,1	58,8
Namangan	45,1	5,9	51	48,4	8,1	56,5	49,9	10,3	60,2
Norin	41,5	4,8	46,3	49	5,9	54,9	50,4	7,7	58,1
Pop	34,7	4,8	39,5	36,9	5,9	42,8	38,7	7,8	46,5
To'raqo'rg'on	43,3	3,7	47	45,5	4,3	49,8	46,7	5,7	52,4
Uychi	42,1	4,6	46,7	39,7	5,9	45,6	41,2	6,8	48



Uchqo'rg'on	42,9	4,8	47,7	40	5,9	45,9	43	6,7	49,7
Chortoq	39,7	4,5	44,2	41,8	6,6	48,4	42,6	8	50,6
Chust	39,1	4,8	43,9	42,7	7,7	50,4	43,5	9,1	52,6
Yangiqo'rg'on	45,2	5	50,2	43,9	5,7	49,6	45,4	6,7	52,1

Namangan viloyati shahar va qishloq joylarida demografik yuklama

ko'rsatkichlari

(2015-2024-yillar, foiz hisobida)

Manba: Ushbu jadval O'zbekiston Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [12]

Namangan viloyatida 2015–2024-yillar davomida qariyalar demografik yuklamasi barqaror va izchil ortib borganligini ko'rsatadi. Agar 2015-yilda viloyat bo'yicha qariyalar yuklamasi 5,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 6,2 foizga, 2024-yilda esa 8,2 foizga yetgan. Demak, to'qqiz yil davomida ushbu ko'rsatkich 2,8 foiz punktga oshgan. Bu esa mehnat yoshidagi har 100 nafar aholiga to'g'ri keladigan qariyalar soni ortib borayotganligini va viloyatda demografik qarish jarayoni bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini anglatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori qariyalar yuklamasi Namangan tumani (10,3 %), Kosonsoy tumani (10,1 %) va Chust tumanida (9,1 %) kuzatilgan. Ayniqsa, Namangan tumanida qariyalar yuklamasi 2015-yildagi 5,9 foizdan 2024-yilda 10,3 foizgacha oshib, 4,4 foiz punktlilik o'sishni namoyon etgan. Chust va Kosonsoy tumanlarida ham qariyalar yuklamasining keskin ortishi ushbu hududlarda demografik qarish sur'atlari viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori ekanligini ko'rsatadi [10].



Mazkur hududlarda qariyalar yuklamasining ortishiga bir qator geodemografik omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, **umr davomiyligining ortishi** asosiy omillardan biridir [2]. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimining takomillashuvi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi va sanitariya-gigiyena sharoitlarining yaxshilanishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi oshib bormoqda. Natijada katta yosh guruhidagi aholining mutlaq soni va ulushi ortmoqda.

Ikkinchidan, **tashqi mehnat migratsiyasi** demografik qarish jarayonini tezlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. Kosonsoy, Chust va Namangan tumanlaridan mehnat yoshidagi aholining boshqa hududlar va xorijiy davlatlarga vaqtinchalik yoki uzoq muddatga chiqib ketishi natijasida hududda qolayotgan aholining yosh tarkibi nisbatan "qarimoqda". Yosh mehnat resurslarining kamayishi qariyalar yuklamasining ortishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, **tug'ilish darajasining nisbatan barqarorlashuvi** ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Garchi Namangan viloyati respublikada tug'ilish darajasi yuqori hududlardan biri bo'lsa-da, ayrim tumanlarda tug'ilish sur'atlarining sekinlashuvi va oila hajmining qisqarishi yosh avlod ulushining nisbatan kamayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa qarish indeksining va qariyalar yuklamasining oshishiga xizmat qiladi.

Namangan shahrida qariyalar yuklamasi 5,9 foizdan 7,7 foizgacha oshgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati ayrim tumanlarga nisbatan pastroq. Bunga shaharda mehnat yoshidagi aholining yuqori ulushi, ichki migratsiya oqimlarining shahar foydasiga shakllanishi va iqtisodiy faollikning nisbatan yuqoriligi ta'sir ko'rsatmoqda [3]. Shunga qaramay, shaharda ham qariyalar sonining ortishi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tizimiga qo'shimcha yuklama tushirayotganini ko'rsatadi.

Qariyalar yuklamasining ortishi hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan muhim oqibatlarni yuzaga keltiradi. Avvalo, mehnat yoshidagi aholiga tushadigan iqtisodiy



va ijtimoiy yuklama kuchayadi. Bundan tashqari, geriatriya, reabilitatsiya va uzoq muddatli parvarish xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj ortadi, pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoya xarajatlari ko'payadi [4]. Ayniqsa, qariyalar yuklamasi 9–10 foizdan oshgan hududlarda sog'liqni saqlash infratuzilmasini kengaytirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish dolzarb vazifaga aylanadi.

Ushbu tendensiyalarni hisobga olgan holda Namangan viloyatida quyidagi demografik siyosat choralari amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, “faol qarish” (active ageing) konsepsiyasini joriy etish orqali keksalarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash zarur. Ikkinchidan, Chust, Kosonsoy va Namangan tumanlarida geriatriya bo'limlari, reabilitatsiya markazlari va uy sharoitida parvarish xizmatlarini kengaytirish lozim. Uchinchidan, mehnat migratsiyasi yuqori bo'lgan hududlarda yosh aholini hududda ushlab qolishga qaratilgan bandlik, tadbirkorlik va kasbiy tayyorlash dasturlarini kuchaytirish zarur [6]. To'rtinchidan, hududiy demografik monitoring tizimini takomillashtirib, qariyalar yuklamasi bo'yicha muntazam prognozlar ishlab chiqish va ularni sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti hamda hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish muhim hisoblanadi.

Demografik qarish jarayoni hududiy rivojlanishning bir qator yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, mehnat resurslari tarkibining o'zgarishi iqtisodiy faollik darajasiga ta'sir qiladi [2]. Ikkinchidan, keksalar ulushining ortishi sog'liqni saqlash tizimida geriatriya, reabilitatsiya va uzoq muddatli parvarish xizmatlariga ehtiyojni kuchaytiradi. Uchinchidan, ijtimoiy himoya xarajatlari va pensiya tizimi yuklamasi ortadi.

Namangan viloyatida demografik qarish jarayoni hozircha keskin bosqichga yetmagan bo'lsa-da, uning hududiy tafovutlari kelgusida infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida yoshlarning migratsiyasi davom etadigan bo'lsa, ayrim tumanlarda qarish sur'atlari tezlashishi ehtimoli mavjud.



Namangan viloyatida demografik qarish ko'rsatkichlari O'zbekistonning umumiy demografik tendensiyalari bilan uyg'un ravishda shakllanmoqda. Respublika miqyosida so'nggi yillarda umr davomiyligining ortishi, sog'liqni saqlash tizimining takomillashuvi va tug'ilish darajasining bosqichma-bosqich barqarorlashuvi natijasida keksalar ulushi asta-sekin ko'payib bormoqda. Biroq Namangan viloyati hanuzgacha yosh aholi ulushi yuqori bo'lgan hududlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli viloyatda demografik qarish jarayoni respublikaning ayrim hududlariga nisbatan sekinroq kechayotgan bo'lsa-da, tumanlar kesimidagi farqlar uning hududiy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari Chust va Kosonsoy tumanlarida qarish indeksining nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda. Mazkur hududlarda 65 yosh va undan katta aholi ulushining ortishi tashqi mehnat migratsiyasi, tug'ilish darajasining nisbatan pasayishi va umr davomiyligining oshishi bilan izohlanadi. Demografik o'tish nazariyasiga ko'ra, bunday hududlar demografik transformatsiyaning keyingi bosqichlariga yaqinlashayotgan bo'lib, mehnat resurslari tarkibi va ijtimoiy xizmatlar tizimida yangi ehtiyojlar yuzaga keladi. Aksincha, Norin, Mingbuloq va Uchqo'rg'on tumanlarida yosh aholi ulushining yuqoriligi tug'ilish darajasining nisbatan yuqori ekanligi va yosh oilalar ulushining ko'pligi bilan bog'liq.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, demografik qarish jarayoni iqtisodiy rivojlanish darajasi, urbanizatsiya, migratsiya va sog'liqni saqlash sifati bilan chambarchas bog'liq [9]. Yaponiya, Italiya va Germaniya kabi davlatlarda 65 yosh va undan katta aholi ulushi 20–30 foizdan oshgan bo'lsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada past. *Biroq BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilgacha O'zbekiston aholisining yosh tarkibida ham keksalar ulushi ortib borishi kutilmoqda* [11]. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyatida hozirgi bosqichda kuzatilayotgan demografik qarish kelgusida yanada kuchayishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli tendensiyaning boshlang'ich ko'rinishi sifatida baholanishi lozim.



Demografik qarishning hududiy rivojlanishga ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, mehnat yoshidagi aholining nisbiy ulushi kamayishi iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida ishchi kuchi taqchilligini yuzaga keltirishi mumkin. Ikkinchidan, keksalar ulushining ortishi sog'liqni saqlash tizimida geriatriya, rehabilitatsiya va uzoq muddatli parvarish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Uchinchidan, pensiya va ijtimoiy himoya tizimiga tushadigan moliyaviy yuklama ortadi. Shuning uchun demografik qarish masalasini faqat demografik ko'rsatkich sifatida emas, balki hududiy rivojlanish, bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy siyosat bilan integratsiyalashgan holda ko'rib chiqish zarur.

Namangan viloyati uchun demografik siyosatning differensial modeli maqsadga muvofiq hisoblanadi. Keksalar ulushi yuqori bo'lgan Chust va Kosonsoy tumanlarida sog'lom qarilik dasturlarini rivojlantirish, birlamchi tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish, geriatriya mutaxassislarini tayyorlash va katta yoshdagi aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Yosh aholi ulushi yuqori bo'lgan Norin, Mingbuloq va Uchqo'rg'on tumanlarida esa ta'lim, kasb-hunar tayyorlash, bandlik va uy-joy infratuzilmasini rivojlantirish demografik dividenddan samarali foydalanish imkonini beradi.

Olingan natijalar Namangan viloyatida demografik qarish jarayonini muntazam monitoring qilish, hududlar kesimida yosh tarkibi bo'yicha prognozlarni ishlab chiqish va faol qarish tamoyillariga asoslangan hududiy demografik siyosatni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va hududiy rivojlanishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Demografik qarish jarayonining istiqboldagi rivojlanishini baholash maqsadida Namangan viloyatida 65 yosh va undan katta aholi ulushining 2035-yilgacha ehtimoliy o'zgarish tendensiyasi tahlil qilindi. Prognozda so'nggi yillardagi yosh tarkibi dinamikasi, umr davomiyligining oshishi, tug'ilish darajasining bosqichma-bosqich barqarorlashuvi va migratsiya jarayonlari hisobga olindi.



Ekstrapolyatsion yondashuv asosida tuzilgan hisob-kitoblar demografik qarishning mo'tadil sur'atlarda davom etishini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyatida 65 yosh va undan katta aholi ulushining 2035-yilgacha ehtimoliy prognozi

Yil	65+ yoshdagi aholi ulushi (%)	Qarish indeksi
2026	5,6	20,3
2028	5,8	21,1
2030	6,1	22,4
2032	6,5	23,9
2035	7,0	25,8

Prognoz natijalariga ko'ra, 2035-yilga borib Namangan viloyatida 65 yosh va undan katta aholi ulushi 7,0 foizga yetishi mumkin. Bu ko'rsatkich xalqaro mezonlarga ko'ra hududning demografik qarish bosqichiga kirayotganini anglatadi. Qarish indeksining 20,3 dan 25,8 gacha ortishi esa bolalar soniga nisbatan keksalar ulushining sezilarli ko'payishini bildiradi.

Kutilayotgan demografik o'zgarishlar mehnat resurslari tarkibi, sog'liqni saqlash tizimi, pensiya ta'minoti va ijtimoiy xizmatlar ko'lamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, Chust va Kosonsoy tumanlarida qarish sur'atlari viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli demografik prognoz natijalarini hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Namangan viloyatida demografik qarish jarayoni hali nisbatan mo'tadil bosqichda ekanligini, biroq hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Chust va Kosonsoy tumanlarida 65 yosh va undan katta aholi ulushi hamda qarish indeksining yuqoriroq bo'lishi ushbu hududlarda keksalar



ulushi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Norin, Mingbuloq va Uchqo'rg'on tumanlarida esa yosh aholi ulushining nisbatan yuqoriligi demografik tarkibning yoshligini saqlab turuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Prognoz natijalari 2035-yilga borib viloyatda 65 yosh va undan katta aholi ulushi 7 foizga yaqinlashishini ko'rsatmoqda. Bu esa demografik qarish jarayonining kelgusida hududiy rivojlanish, mehnat bozori va ijtimoiy infratuzilmaga ta'siri kuchayishini anglatadi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✚ Namangan viloyatida geodemografik monitoring tizimini takomillashtirish hamda yosh tarkibi bo'yicha muntazam hududiy kuzatuvlarni yo'lga qo'yish.
- ✚ Chust va Kosonsoy tumanlarida geriatriya, reabilitatsiya va uzoq muddatli parvarish xizmatlari tarmog'ini kengaytirish.
- ✚ Katta yoshdagi aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash maqsadida moslashuvchan bandlik, qayta kasbiy tayyorlash va umrbod ta'lim dasturlarini rivojlantirish.
- ✚ Demografik prognoz natijalarini hududiy rivojlanish strategiyalari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya dasturlariga integratsiya qilish hamda tumanlar kesimida differensial demografik siyosatni shakllantirish.
- ✚ "Faol qarish" (active ageing) konsepsiyasini mahalliy sharoitga moslashtirish, keksalarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantirish va ularning sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchi hududiy dasturlarni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatida demografik qarish jarayoni hududiy rivojlanishning muhim geodemografik omillaridan biri bo'lib, uni ilmiy asosda monitoring qilish va prognozlash barqaror demografik siyosatni shakllantirishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov Q.X. **Demografiya**: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.



2. Bustanov M.M., Mamadaliyev A.G. Demographic situation, level of provision of enterprises working population of Namangan region. American Academic publishers, volume 05, issue 05, 2025
3. Jumaxanov Sh.Z., Xasanova Sh.D Namangan viloyati aholisining tabiiy harakati dinamikasi va yosh-jins tarkibining o‘zaro bog‘liqligi. “FarDU ilmiy xabarlar” <https://journal.fdu.uz>, 2-son , 9-18 betlar
4. Madaminov U.M. Namangan viloyati aholisining mustaqillik yillarida demografik o‘zgarishi. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(13) 2022, 113–116.
5. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “Mashrab”, 2024. – 408 b.
6. Tojiyeva Z.N., Do‘smonov F.A., Ibragimov L.Z. Geodemografiya: darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2024. – 304 b.
7. United Nations Population Fund (UNFPA). Ageing in Central Asia: Trends and Policy Implications. – New York: UNFPA, 2023.
8. United Nations. World Population Prospects 2024. – New York: United Nations, 2024.
9. World Health Organization. Decade of Healthy Ageing: Baseline Report. – Geneva: WHO, 2024.
10. Xasanova Sh.D, Namangan viloyatida demografik yuklama va uning hududiy rivojlanishga ta'siri// Geografiya ta'limini modernizatsiyalash sharoitida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 176-182 b. Jizzax – 2026. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19694959>
11. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholi va Taraqqiyot Komissiyasi. URL: <https://www.un.org/development/desa/pd/>
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. URL: <https://stat.uz>
13. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. URL: <https://namstat.uz>